

ONLAYN QIMOR O‘YINLARIGA TOBELIK VA SHAXSNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

ADPI “Pedagogika va psixologiya” kafedrası
o‘qituvchisi D.M. Fatidinova

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19351119>

Annotatsiya: Mazkur maqolada onlayn qimor o‘yinlariga tobelik muammosi va uning shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida shaxsning temperament xususiyatlari, impulsivlik darajasi, stressga chidamlilik, motivatsion omillar hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv kabi omillarning onlayn qimor o‘yinlariga moyillikka ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, mazkur muammoning psixologik mexanizmlari va uning oldini olish yo‘llari ham ilmiy manbalar asosida yoritildi.

Kalit so‘zlar: onlayn qimor o‘yinlari, psixologik tobelik, individual-psixologik xususiyatlar, impulsivlik, stressga chidamlilik, shaxs xususiyatlari, psixologik determinantlar.

Kirish: Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet tarmog‘ining keng tarqalishi natijasida turli xil ko‘ngilochar platformalar, jumladan, onlayn qimor o‘yinlari ham ommalashib bormoqda. So‘nggi yillarda onlayn kazino, sport tikishlari va boshqa turdagi virtual qimor o‘yinlari insonlarning kundalik faoliyatiga kirib kelib, ayrim hollarda psixologik tobelikning shakllanishiga olib kelmoqda. Mazkur muammo ayniqsa yoshlar va iqtisodiy faol qatlam vakillari orasida keng tarqalib borayotganligi bilan dolzarb hisoblanadi. Psixologiya fanida qimor o‘yinlariga tobelik shaxsning xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi muhim psixologik muammolardan biri sifatida o‘rganiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan qimor o‘yinlariga patologik qaramlik psixologik va xulq-atvor buzilishlari qatoriga kiritilgan. Bunda shaxsning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olmasligi, riskka moyillikning ortishi hamda real hayotdagi muammolardan qochish tendensiyasi kuzatiladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, onlayn qimor o‘yinlariga tobelikning shakllanishi nafaqat ijtimoiy omillar, balki shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Jumladan, impulsivlik darajasi yuqori bo‘lgan, stressga chidamliligi past hamda emotsional barqarorligi yetarli darajada shakllanmagan shaxslar qimor o‘yinlariga ko‘proq moyil bo‘lishi mumkin. Shu sababli ushbu muammoni chuqur o‘rganish psixologiya fanining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Onlayn qimor o‘yinlariga tobelik – bu shaxsning qimor o‘yinlari bilan bog‘liq faoliyatga haddan tashqari berilib ketishi natijasida yuzaga keladigan psixologik qaramlik holatidir. Ushbu jarayonda inson o‘z vaqtining katta qismini virtual o‘yinlarga sarflaydi hamda real hayotdagi vazifalariga nisbatan e’tiborsizlik ko‘rsatadi. Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, qimor o‘yinlariga tobelik shaxsning motivatsion va emotsional sohalarida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan izohlanadi. O‘yin jarayonida inson mukofot olish ehtimoli bilan bog‘liq kuchli emotsional kechinmalarni boshdan kechiradi. Bu esa dopamin tizimining faollashishiga olib kelib, o‘yinga qayta-qayta murojaat qilish istagini kuchaytiradi.

Qimor o‘yinlariga qaramlik insonning xulq-atvoriy addiktsiyalaridan biri bo‘lib, u shaxsning mukofot tizimiga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlar orqali shakllanadi va vaqt o‘tishi bilan nazorat qilinmaydigan xulq-atvorga aylanadi[1. p. 34.]. Shunday ekan qimor o‘yinlariga

qaramlikning psixologik mohiyatini tushuntirib beradi. Mark Griffithsning tadqiqotlarida qimor o’yinlari inson miyasidagi mukofot tizimi bilan bevosita bog’liqligi ta’kidlanadi. O’yin jarayonida paydo bo’ladigan ijobiy emotsiyalar va mukofot kutish hissi insonni qayta-qayta o’yin o’ynashga undaydi. Shu sababli vaqt o’tishi bilan ushbu jarayon odatiy ko’ngilochar faoliyatdan psixologik qaramlikka aylanishi mumkin. Bu jarayonda shaxsning individual xususiyatlari, xususan impulsivlik, riskka moyillik va emotsional barqarorlik darajasi muhim rol o’ynaydi. Onlayn qimor o’yinlari an’anaviy qimor o’yinlariga qaraganda tezkor mukofot berish imkoniyati sababli insonda qaramlikning shakllanish xavfini yanada kuchaytiradi[2.p.112.]. Ko’plab psixologlar qimor o’yinlariga qaramlikni xulq-atvoriy addiksiya sifatida baholaydilar. Bu turdagi addiksiyada insonning ruhiy ehtiyojlari qondirilishi maqsadida muayyan faoliyatga haddan tashqari berilib ketish holati kuzatiladi. Natijada shaxsning ijtimoiy munosabatlari, kasbiy faoliyati va psixik salomatligi salbiy ta’sirga uchrashi mumkin. Kimberly Young internetga qaramlik va virtual muhitdagi addiktiv xulq-atvorni o’rganishda yetakchi olimlardan biridir. Uning fikricha, onlayn qimor o’yinlari insonning vaqt va makon cheklovlarisiz o’yin o’ynash imkoniyatini yaratadi. Bu esa o’yinning doimiy takrorlanishiga olib keladi. Bundan tashqari, onlayn platformalarda natija tez aniqlanishi insonda kuchli emotsional reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Natijada shaxs o’yinni to’xtatish qiyin bo’lgan psixologik qaramlik holatiga tushib qolishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiy muhit bilan o’zaro munosabatlari uning xulq-atvori va psixologik holatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir[3.112-bet.]. V. Karimova shaxsning rivojlanishida ijtimoiy muhitning o’rni muhimligini ta’kidlaydi. Insonning atrofidagi ijtimoiy muhit – oila, tengdoshlar, jamiyat – uning xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Agar shaxs yashayotgan muhitda qimor o’yinlariga nisbatan ijobiy munosabat mavjud bo’lsa yoki bunday faoliyat keng tarqalgan bo’lsa, shaxs ham ushbu faoliyatga jalb qilinishi ehtimoli ortadi. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari qimor o’yinlariga tobelikning shakllanishida muhim rol o’ynaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, impulsivlik darajasi yuqori bo’lgan shaxslar tezkor qaror qabul qilishga moyil bo’lib, riskli faoliyat turlariga ko’proq jalb etiladi. Bunday shaxslar ko’pincha o’z xatti-harakatlarining oqibatlarini yetarlicha baholay olmaydi.

Shaxsning temperament xususiyatlari uning xulq-atvor strategiyalarini belgilab beruvchi muhim psixologik omillardan biridir[4]. Temperament xususiyatlari ham mazkur jarayonga ta’sir ko’rsatadi. Masalan, sangvinik va xolerik temperamentga ega bo’lgan shaxslar faol va emotsional bo’lib, yangi tajribalarni sinab ko’rishga intiladilar. Shu sababli ular qimor o’yinlariga nisbatan yuqori qiziqish bildirishi mumkin. Bundan tashqari, stressga chidamlilik darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Hayotiy qiyinchiliklarga duch kelgan ayrim shaxslar psixologik bosimdan qochish maqsadida qimor o’yinlariga murojaat qiladilar. Bu esa vaqt o’tishi bilan psixologik qaramlikning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Temperament shaxsning emotsional reaksiyalari, faolligi va riskka munosabatini belgilaydi. Masalan, xolerik temperamentga ega shaxslar faol, tezkor va ba’zan impulsiv qarorlar qabul qilishga moyil bo’ladi. Shu sababli ular riskli faoliyat turlariga, jumladan qimor o’yinlariga nisbatan yuqori qiziqish bildirishi mumkin.

Psixologik barqarorlik darajasi past bo’lgan shaxslar stressli vaziyatlarda turli kompensator xatti-harakatlarga murojaat qiladi[5]. Shaxsning psixologik barqarorligi uning turli qiyinchiliklarga qanday munosabat bildirishini belgilaydi. Stressga chidamliligi past bo’lgan insonlar ko’pincha real muammolardan qochish uchun turli faoliyat turlariga murojaat qiladilar. Ba’zi hollarda bu faoliyat qimor o’yinlari ko’rinishida namoyon bo’lishi mumkin. Shu sababli psixologik barqarorlik darajasini oshirish qimor o’yinlariga qaramlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Onlayn qimor o’yinlariga tobelikning shakllanishida ijtimoiy muhit ham muhim ahamiyatga ega. Internet orqali o’yinlarning oson kirish imkoniyati, reklama va marketing strategiyalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda ushbu o’yinlarning targ’ib qilinishi shaxsning qiziqishini oshiradi. Shuningdek,

tengdoshlar guruhi ham insonning xulq-atvoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar shaxs atrofida qimor o‘yinlari bilan shug‘ullanuvchi odamlar ko‘p bo‘lsa, u ham ushbu faoliyatga jalb qilinishi ehtimoli ortadi.

Shaxsning motivatsion sohasidagi nomutanosiblik uning riskli faoliyat turlariga qiziqishini kuchaytirishi mumkin[6]. B.Qodirov shaxs motivatsiyasining inson xulq-atvorini boshqaruvchi asosiy omil ekanligini ta’kidlaydi. Agar insonning ichki motivlari aniq shakllanmagan bo‘lsa yoki u o‘z maqsadlariga erishish uchun barqaror strategiyaga ega bo‘lmasa, u tez natija beruvchi faoliyatlarga qiziqishi mumkin. Qimor o‘yinlari aynan shunday faoliyatlardan biri bo‘lib, unda tez boyish yoki muvaffaqiyatga erishish illyuziyasi mavjud.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, onlayn qimor o‘yinlariga tobeklik murakkab psixologik hodisa bo‘lib, u shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Impulsivlik, stressga chidamlilikning pastligi, emotsional barqarorlik yetishmasligi hamda ijtimoiy muhit ta’siri ushbu muammoning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli onlayn qimor o‘yinlariga tobeklikning oldini olishda kompleks psixologik profilaktika choralarini ishlab chiqish zarur. Bunda shaxsning psixologik barqarorligini oshirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Griffiths M. Gambling Addiction and its Treatment. – London: Routledge, 2016. – p. 34.
2. Young K. Internet Addiction: A Handbook and Guide to Evaluation and Treatment. – New York: Wiley, 2011. – p. 112.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 112-bet.
4. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 185-bet.
5. Do‘stmuhammedova Sh. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019. – 146-bet.
6. Qodirov B.R. Motivatsiya psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2016. – 207-bet.

Fatidinova D.M. Onlayn qimor o‘yinlariga tobeklikning psixologik omillari. – Vestnik integrativnoy psixologii, 2025.